



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**No2**  
MAXSUS SON



# BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

*Elektron nashr.  
2026-yil, mart.*

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor

**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

**Musayeva Shoira Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)

**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.

**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

**Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi

**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.

**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)

**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari

**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi

**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.

**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjajevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukaramova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

XODIMLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTI, KORPORATIV MADANIYAT VA MEHNAT UNUMDORLIGI O'RTASIDAGI UZVIY BOG'LIQLIKNI CHUQUR TAHLIL QILISH.....	8
<b>Shoabdurashidova Mahina Jaxongir qizi, Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ESG TAMOYILLARI INTEGRATSIYASI ORQALI KORXONALAR BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH.....	15
<b>Jolg'ashova Nozima Mansurovna, T.D. Mamatkulov</b>	
АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ РЕГИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	21
<b>Давлетова Адиля Азатбаевна, Сапаев Дилшод Хушнудович</b>	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI RIVOJLANISHI IQTISODIY O'SISHNING OMILI.....	27
<b>Jumaniyazov Rashid Azamatovich, Ismailov Baxit Abdireymovich</b>	
“LOKOMOTIV” MEHMONXONASI ZAMONAVIY SHAROITLARDI XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	31
<b>Masharipov O'rolbek Ozod o'g'li, Khodjaeva Nodiraxon Abdurashidovna</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	36
<b>Boybosinova Shaxlo Meles qizi, Ostonov Muhridin Bahriddin o'g'li</b>	
AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONIDA AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH VA BAHOLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	44
<b>Qodirjonov Dilshodjon Qosimjon o'g'li, Xolmirzayev Ulug'bek</b>	
BUXGALTERIYA HISOBINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MOLIYAVIY NAZORAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	49
<b>Igamberdieva Kunduz Ergashevna, O'razova Marjona Valiboy qizi</b>	
ВЛИЯНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ.....	55
<b>Камилова Наргиза Абдукажоровна, Давронов Дониёрбек Заррухович</b>	
ANALYSIS OF OUR COUNTRY'S POSSIBILITIES FOR ACCESS TO THE SEA THROUGH THE KABUL CORRIDOR.....	61
<b>Khuzhamov Babur, Khudoyberdiev Diyorbek, Jumaboev Bekzod</b>	
O'ZBEKISTONDA ESK.UZ TIZIMINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA ISTIQBOLLARI .....	69
<b>M.J.Nurmetova, Baxtyorov Ahadbek Doniyor o'g'li</b>	
O'ZBEKISTONDA KRIPTOVALYUTALARNING JORIY FOYDALANISHINI TAHLIL QILISH.....	77
<b>Qobilova N. Q., Normurodov X. E.</b>	
MOLIYAVIY RISKLAR VA ULARNI XALQARO MIQYOSDA BOSHQARISH USULLARI.....	83
<b>Toirov Bobur G'ofir o'g'li, F.U.Umarov</b>	
SUN'IY INTELEKTNING INSON ONGIGA VA DAVLAT KORXONALARINI RAQAMLASHTIRISHGA TA'SIRI.....	90
<b>Uskanboyev Temurbek Ismoil o'g'li, F.U.Umarov</b>	
IQTISODIYOT TARMOQLARI YUKLARINI TASHISHNI TASHKIL ETISH.....	97
<b>Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich</b>	



TARIXIY OBIDALAR ASOSIDA MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH.....	102
Boltaboyeva Maqsuda Matjonboy qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INTERNET VA IJTIMOY TARMOQLARNING ROLI.....	105
Abdumutalova Shahzoda Yodgorjon qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	
ФИНАНСИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ЗА СЧЕТ ИНВЕСТИЦИОННЫХ И ПАЕВЫХ ФОНДОВ .....	109
Дилшод Насиров, Сухроб Хайитов, Самира Каримова	
КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК УСЛОВИЕ ОСМЫСЛЕННОГО РАЗГОВОРА ОБ ЭКОНОМИКЕ .....	115
Зайналов Ж. Р., Абдумажидов Ш. Ш.	
ГОСУДАРСТВЕННЫЕ РАСХОДЫ КАК ПОКАЗАТЕЛЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТРАНЫ.....	119
Юсупов Азаматжон Икромович, Ишонкулова Феруза Асатовна	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОВЫШЕНИЯ ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ В ПРЕДПРИЯТИЯХ СФЕРЫ УСЛУГ .....	124
Насиров Дилшод Фархадович, Казакбаева Динара, Максетбаева Гулпаршин	
ВЕЛИКОЕ УСКОРЕНИЕ: КОНВЕРГЕНЦИЯ ИИ И БЛОКЧЕЙНА КАК НОВАЯ ИНВЕСТИЦИОННАЯ ПАРАДИГМА 2026 ГОДА.....	129
Насиров Дилшод Фархадович, Синько Юлианна Викторовна, Шамшетова Жамила Муса кызы	
KORXONANING IQTISODIY SALONIYATINI BAHOLASH KO'RSATKICHLARI .....	134
Turg'unpulatov Ziyovuddin Alijon o'g'li, Odilov Xamidillo Mahmudjon o'g'li	
РОЛЬ БЛОКЧЕЙН-ТЕХНОЛОГИЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРОЗРАЧНОСТИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ .....	139
Дилмуродов Журабек Улугбек угли, Белалова Гузаль Анваровна	
OPERATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH.....	144
Nasrullayev Omonulloxon Nodirjon o'g'li, X.M. Odilov	
HAVO IFLOSLANISHI VA YASHIL TABIAT YOMONLASHUVI NATIJASIDA SOG'LIQNI SAQLASH XARAJATLARINING OSHISHI: IQTISODIY TAHLILI .....	150
Sotvoldiyeva Rayxona Abdurasul qizi, Odilov Xamidillo	
TIJORAT BANKLARIDA PUL MABLAG'LARI HARAKATI VA LIKVIDLIK TAHLILI .....	155
Foziljonova Niholaxon Fayoz qizi, X.M.Odilov	
NOMINAL VA REAL YAIM VA UNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASIDAGI AHAMIYATI.....	162
Ziyodullayev Dilshod Sherzodovich, Jo'rayev Toshbolta To'xtayevich	
YASHIL IQTISODIYOT: ZAMONAVIY RIVOJLANISH PARADIGMASI SIFATIDA TAHLILI.....	167
Yo'ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o'g'li, Yoqubova Zilola Tura qizi	



# YASHIL IQTISODIYOT: ZAMONAVIY RIVOJLANISH PARADIGMASI SIFATIDA TAHLILI



**Yo'ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o'g'li**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti  
Iqtisodiyot fakulteti 1-kurs talabasi

E-mail: [yuldashaliyevmukhammadaziz@gmail.com](mailto:yuldashaliyevmukhammadaziz@gmail.com)

Ilmiy rahbar:

**Yoqubova Zilola Tura qizi**

O'zMU Iqtisodiyot fakulteti,  
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, asosiy tamoyillari hamda zamonaviy rivojlanish paradigmasidagi o'rnini o'rganishga bag'ishlangan. Unda qayta tiklanadigan energiya manbalari, energiya samaradorligi, ekologik toza texnologiyalar va aylanma iqtisodiyot yo'nalishlari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv metodologiyasiga asoslanadi. Jahon tajribasi asosida yashil iqtisodiyotga o'tish mexanizmlari hamda davlat siyosatining roli baholanadi. O'zbekiston sharoitida ushbu yo'nalishning imkoniyatlari, mavjud muammolari va ularni hal etishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolaning ilmiy yangiligi O'zbekistonning resurs salohiyatini global yashil tranzitsiya tendensiyalari bilan uyg'un holda tahlil qilishda namoyon bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qayta tiklanadigan energiya, ekologik texnologiyalar, aylanma iqtisodiyot, energiya samaradorligi, iqlim o'zgarishi, O'zbekiston.

**Abstract:** This article examines the theoretical foundations, key principles, and the role of the green economy within the modern development paradigm. It provides a comprehensive analysis of renewable energy sources, energy efficiency, environmentally friendly technologies, and the circular economy. The research is based on a comparative analysis and a systems approach methodology. Drawing on global experience, the mechanisms for transitioning to a green economy and the role of public policy are evaluated. In the context of Uzbekistan, the study identifies existing opportunities, challenges, and proposes practical recommendations for their resolution. The scientific novelty of the article lies in the integrated assessment of Uzbekistan's resource potential in alignment with global green transition trends.

**Key words:** green economy, sustainable development, renewable energy, environmental technologies, circular economy, energy efficiency, climate change, Uzbekistan.

**Аннотация:** Данная статья посвящена исследованию теоретических основ, ключевых принципов и роли зелёной экономики в современной парадигме развития. В работе комплексно анализируются направления возобновляемой энергетики, энергоэффективности, экологически чистых технологий и циркулярной экономики. Методологической основой исследования являются сравнительный анализ и системный подход. На основе мирового опыта оцениваются механизмы перехода к зелёной экономике и роль государственной политики в данном процессе. В условиях Узбекистана рассматриваются возможности, существующие проблемы и предлагаются практические рекомендации по их решению. Научная новизна исследования заключается в комплексном анализе ресурсного потенциала Узбекистана в контексте глобальных тенденций зелёного перехода.

**Ключевые слова:** зелёная экономика, устойчивое развитие, возобновляемая энергия, экологические технологии, циркулярная экономика, энергоэффективность, изменение климата, Узбекистан.



## KIRISH

XXI asrda iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi hamda atrof-muhit ifloslanishi kabi global muammolar an'anaviy iqtisodiy rivojlanish modelini qayta ko'rib chiqishni zarur etmoqda. Faqat iqtisodiy o'sishga yo'naltirilgan va tabiiy resurslarni cheksiz deb hisoblaydigan yondashuv o'z samaradorligini bosqichma-bosqich yo'qotib bormoqda. Mazkur muammolarga javob sifatida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi shakllanib, iqtisodiy rivojlanish bilan ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan [1].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi (UNEP) yashil iqtisodiyotni quyidagicha ta'riflaydi: "Yashil iqtisodiyot — bu insonlar farovonligini oshiradigan va ijtimoiy tenglikni ta'minlaydigan, shu bilan birga atrof-muhitga bo'lgan xavflarni hamda ekologik tanqislikni sezilarli darajada kamaytiradigan iqtisodiyotdir" [1]. Ushbu ta'rif iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik — uch asosiy o'lchamni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi ham yashil iqtisodiyotga o'tish yo'lida izchil islohotlarni amalga oshirilmogda. Jumladan, 2019–yilda Prezidentning PQ-4477–son<sup>1</sup> qarori bilan tasdiqlangan "2019–2030–yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" ekologik barqarorlik tamoyillarini ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilaydi [2]. Shuningdek, 2022–2026–yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish vazifasi belgilangan [3].

Mazkur maqolada yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, asosiy yo'nalishlari, jahon tajribasi hamda O'zbekiston uchun amaliy imkoniyatlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi — yashil iqtisodiyot tamoyillarini tizimli ravishda o'rganish va O'zbekiston sharoitida ularni samarali joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot obyekti — yashil iqtisodiyot jarayonlari, tadqiqot predmeti esa O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish mexanizmlari va mavjud muammolardir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot muammolari ko'plab mamlakatlar olimlarining diqqat markaziga aylangan. Xorijiy olimlar yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga ta'siri bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, D.W. Pearce va R.K. Turner yashil iqtisodiyotning asosini tabiiy kapitalni muhofaza qilish hamda inson farovonligini oshirishning muhim omili sifatida baholaganlar [4]. B.N. Porfiryev esa yashil iqtisodiyotni iqtisodiy modernizatsiyaning yangi paradigmasi sifatida ta'riflab, uning texnologik innovatsiyalarni rivojlantirish va kapital oqimlarini qayta yo'naltirishdagi ahamiyatini asoslab bergan [5].

S.N. Bobylev va V.M. Zaxarov MDH davlatlari uchun yashil iqtisodiyotga o'tish resurslarga yuqori darajadagi bog'liqlikni kamaytirish imkonini berishini ta'kidlaganlar [6]. J.D. Sachs esa barqaror rivojlanishni iqtisodiy o'sish, ijtimoiy tenglik va ekologik mas'uliyatni uyg'unlashtiruvchi XXI asr sivilizatsiyasining ustuvor maqsadi sifatida e'tirof etgan [7].

O'zbek olimlari ham ushbu yo'nalishda muhim ilmiy hissa qo'shganlar. I.E. Abdullayev yashil iqtisodiyotni resurs samaradorligi va ekologik barqarorlikni bir vaqtda ta'minlovchi strategik yo'nalish sifatida izohlagan [8]. D.X. Xolmatov esa O'zbekistonning quyosh energiyasi salohiyati yashil iqtisodiyotga o'tishda mamlakat uchun muhim raqobat ustunligini shakllantirishini ilmiy jihatdan asoslab bergan [9].

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot bo'yicha ilmiy qarashlar turli mamlakatlarda o'zaro uyg'un holda rivojlanmogda. Xususan, O'zbek olimlari mamlakatning geografik va resurs salohiyatini, Rossiya olimlari MDH hududiga xos jihatlarni, G'arb olimlari esa global nazariy asoslarni chuqur tahlil qilgan. Mazkur maqola esa ushbu yondashuvlardan farqli ravishda O'zbekiston salohiyatini global tendensiyalar bilan uyg'un holda kompleks tarzda o'rganishga qaratilgan.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi 1960–1970–yillarda ekologik muammolarning kuchayishi natijasida shakllana boshlagan. 1987–yilda Brundtland komissiyasi tomonidan "barqaror rivojlanish" tushunchasi rasmiy ravishda ta'riflangan [10]. 2008–yildagi global moliyaviy inqirozdan so'ng esa UNEP tomonidan "Global yashil iqtisodiyot tashabbusi" ilgari surilib [11], yashil investitsiyalarning iqtisodiyotni tiklashdagi roli yanada mustahkamlangan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanilgan: qiyosiy tahlil usuli — turli mamlakatlar (Germaniya, Daniya, O'zbekiston) yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlarini o'zaro taqqoslash uchun; tizimli yondashuv — yashil iqtisodiyotni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik o'lchamlar birligida kompleks o'rganish uchun; statistik tahlil — IRENA, UNEP va IEA ma'lumotlari asosida mavjud tendensiyalarni aniqlash uchun; induktiv va deduktiv metodlar — jahon tajribasidan kelib chiqib, O'zbekiston sharoitiga mos ilmiy xulosalar chiqarish uchun qo'llanilgan.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son <https://lex.uz/docs/-4539502>



Tadqiqotning axborot bazasini UNEP, IRENA, OECD, Jahon banki hamda IEA tashkilotlarining rasmiy hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari, shuningdek, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi. Qiyosiy tahlil jarayonida Germaniya va Daniya tajribasi O'zbekiston uchun amaliy jihatdan eng mos modellardan biri sifatida tanlab olingan, chunki ushbu mamlakatlar yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida samarali natijalarga erishgan va xalqaro hamkorlik doirasida muvaffaqiyatli tajriba shakllantirgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR


Qayta tiklanadigan energiya manbalari yashil iqtisodiyotning asosiy ustunlaridan biridir. So'nggi o'n yilliklarda quyosh panellari va shamol turbinalarining narxi sezilarli darajada pasayib, ular raqobatbardosh energiya manbalariga aylangan. IRENA ma'lumotlariga ko'ra, 2020–yilda jahonda umumiy qayta tiklanadigan energiya quvvati 2 799 GW ga yetgan [12]. Germaniya, Xitoy, AQSh va Hindiston quyosh energiyasi ishlab chiqarishda jahon yetakchilariga aylangan.

Energiya samaradorligi — bu bir xil natijaga erishish uchun kamroq energiya sarflash qobiliyatidir. Ushbu yo'nalish yashil iqtisodiyotning iqtisodiy jihatdan eng samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi, chunki energiya sarfini kamaytirish nafaqat iqtisodiy tejamkorlikni ta'minlaydi, balki ekologik barqarorlikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi [13]. Binolarni energiya samarador qilish, sanoat va transport tarmoqlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ushbu yo'nalishning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Aylanma iqtisodiyot (circular economy) chiqindilar va ifloslanishni loyihalash bosqichidayoq minimallashtirish, mahsulotlardan imkon qadar uzoq muddat foydalanish hamda tabiiy tizimlarni tiklash tamoyillariga asoslangan iqtisodiy modeldir [14]. Mazkur yondashuv an'anaviy chiziqli model (olish–ishlab chiqarish–tashlash) o'rnini bosadi. Germaniyada chiqindilarning 60 % dan ortig'i qayta ishlanadi, bu esa resurslarni tejash va yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini bermoqda [14, 15].

O'zbekiston yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Mamlakat hududida yillik 1 900–2 000 kVt·soat/m<sup>2</sup> quyosh nurlanishi mavjud bo'lib, bu uni dunyodagi quyosh energiyasi salohiyati yuqori bo'lgan mamlakatlar qatoriga kiritadi. Hozirda Samarqand, Navoiy va Jizzax viloyatlarida yirik quyosh elektr stansiyalari qurilmoqda, 2030–yilgacha esa 5 000 MVt quvvatdagi quyosh elektr stansiyalarini ishga tushirish rejalashtirilgan [2, 16]. Shamol energiyasi yo'nalishida, ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyatida yirik loyihalar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Davlat siyosati darajasida ham izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2019–yilda “2019–2030–yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi” qabul qilingan [2]. 2022–yilda qabul qilingan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini 2026–yilgacha 25 foizga yetkazish maqsadi belgilangan [3]. Shuningdek, EBRD, Osiyo taraqqiyot banki va Jahon banki kabi xalqaro moliya institutlari O'zbekistonda yashil loyihalarni faol moliyalashtirmoqda [17, 18] (1-rasm).



**1-rasm.** Dunyo bo'yicha qayta tiklanadigan energiya quvvati o'sishi (chap) va O'zbekistonning energiya maqsadlari (o'ng).

1–rasmdan ko'rinib turibdiki, jahon miqyosida qayta tiklanadigan energiya quvvati 2010–yildagi 1 228 GW dan 2022–yilga kelib 3 372 GW ga yetib, 12 yil davomida 2,7 barobarga oshgan. IRENA ma'lumotlariga ko'ra, ushbu o'sishning asosiy sababi quyosh va shamol energiyasi texnologiyalari narxining sezilarli darajada



pasayishi bilan izohlanadi [12]. O'zbekiston 2026–yilgacha qayta tiklanadigan energiya ulushini 25 foizga yetkazish orqali mazkur global tendensiyaga faol qo'shilishni maqsad qilgan.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida ayrim tizimli muammolar mavjud bo'lib, ularni aniqlash va bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

1–jadval. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishning muammolari va tavsiya etilgan yechimlar<sup>2</sup>

Muammo	Sababi	Tavsiya etilgan yechim
Moliyaviy resurslarning yetishmasligi	Yashil texnologiyalar katta boshlang'ich investitsiyalarni talab qiladi	Xalqaro moliya institutlari mablag'lari, yashil obligatsiyalar hamda davlat–xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish
Malakali kadrlarning yetishmasligi	Yashil texnologiyalar sohasida tajribali mutaxassislar soni yetarli emas	Oliy ta'lim muassasalarida maxsus dasturlarni joriy etish, xalqaro tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish va malaka oshirish kurslarini tashkil etish
Ekologik savodxonlik darajasining pastligi	Fuqarolar yashil iqtisodiyot afzalliklari haqida yetarli ma'lumotga ega emas	Ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot ishlarini kuchaytirish, ta'lim dasturlariga ekologik komponentlarni kiritish
Texnologiyalarga kirish imkoniyatining cheklanganligi	Ayrim yashil texnologiyalar O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydi	Xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikni kengaytirish va mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish
Me'yoriy-huquqiy bazaning yetarli darajada shakllanmaganligi	Ayrim standartlar va tartiblar to'liq aniqlashtirilmagan	Xalqaro standartlarga mos ravishda huquqiy bazani takomillashtirish

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Birinchidan, yashil iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muqobil emas, balki zaruriy yo'nalishi ekanligini global iqlim o'zgarishi va ekologik muammolarning kuchayishi yaqqol ko'rsatmoqda [1]. Ushbu yondashuv iqtisodiy o'sish, ijtimoiy taraqqiyot va ekologik barqarorlikni bir vaqtda ta'minlash imkonini beradi.

Ikkinchidan, qayta tiklanadigan energiya manbalari, energiya samaradorligi hamda aylanma iqtisodiyot yashil iqtisodiyotning uch asosiy ustuni hisoblanadi [12, 13, 14]. Texnologik taraqqiyot natijasida ushbu yo'nalishlar iqtisodiy jihatdan tobora samaraliroq bo'lib bormoqda.

Uchinchidan, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o'tish davlat siyosati, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi samarali hamkorlikni talab etadi. Muvaffaqiyatli tajriba sifatida Germaniya va Daniya misolida qonunchilik bazasini takomillashtirish, moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish hamda ta'lim dasturlarini rivojlantirish muhim omil bo'lgan [13, 19].

To'rtinchidan, O'zbekiston yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Xususan, quyosh va shamol energiyasi resurslari hamda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari ijobiy sharoitlarni shakllantirmoqda [2, 3]. Shu bilan birga, moliyaviy resurslar, malakali kadrlar va me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish zarurati mavjud.

Beshinchidan, yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat ekologik muammolarni hal etishga xizmat qiladi, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlarni — “yashil” ish o'rinlari, innovatsion texnologiyalar va yangi bozorlar orqali iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish imkonini ham yaratadi [1].

Tavsiyalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- (1) yashil sanoat zonalarini tashkil etish orqali mahalliy yashil texnologiyalar ishlab chiqarishni rag'batlantirish;
- (2) oliy ta'lim muassasalarida yashil iqtisodiyot yo'nalishidagi mutaxassislik dasturlarini joriy etish;
- (3) xususiy sektor uchun yashil investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida soliq imtiyozlarini kengaytirish;
- (4) umumiy ta'lim dasturlariga ekologik ta'limni majburiy komponent sifatida kiritish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. UNEP. Towards a Green Economy. UNEP, 2011–y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4477–son qarori. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi, 2019–y. <https://lex.uz/uz/docs/-4539502>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60–son farmoni. Toshkent, 2022–y. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
4. Pearce, D.W., Turner, R.K. Economics of Natural Resources and the Environment. Harvester Wheatsheaf, 1990–y.
5. Порфирьев, Б.Н. Зеленая экономика: реалии, перспективы и пределы роста. Москва, 2012–й.
6. Бобылев, С.Н., Захаров, В.М. «Зелёная» экономика и модернизация. Москва, 2011–й.
7. Sachs, J.D. The Age of Sustainable Development. Columbia University Press, 2015–y.

<sup>2</sup> Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



8. Abdullayev, I.E. Yashil iqtisodiyot va O'zbekiston. Toshkent: Fan nashriyoti, 2021-y.
9. Xolmatov, D.X. Barqaror rivojlanish va yashil investitsiyalar // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2020-y., № 4, 45–58-b.
10. Brundtland, G.H. Our Common Future. Oxford University Press, 1987-y.
11. Barbier, E.B. A Global Green New Deal. Cambridge University Press, 2010-y.
12. International Renewable Energy Agency (IRENA). Renewable Power Generation Costs in 2020. IRENA, 2021-y.
13. OECD. Towards Green Growth. OECD Publishing, 2011-y.
14. Ellen MacArthur Foundation. Towards the Circular Economy. Ellen MacArthur Foundation, 2013-y.
15. Eurostat. Municipal Waste Statistics. European Commission, 2022-y.
16. IEA. Uzbekistan Energy Profile. IEA, 2022-y.
17. EBRD. Uzbekistan Country Strategy. EBRD, 2023-y.
18. Asian Development Bank (ADB). Uzbekistan: Country Partnership Strategy. ADB, 2022-y.
19. European Commission. The European Green Deal. COM(2019) 640 final. Brussels, 2019-y.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

### 2-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>